

Taraflar, bir tomondan, “BOOKNOMY” MChJ direktori Odilbek Ikromov (keyingi o'rinlarda – sotuvchi) va ikkinchi tomondan iste'molchi (FISH, passport ma'lumotlar, qachon va kim tomonidan berilgan) quyidagi mazmundagi shartnomani tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnoma «BOOKNOMY» MChJ tomonidan Ingliz, Rus, Arab, Turk va Koreys tillarida erkin so'zlashishni o'rganish bo'yicha **kitob va uning mobil ilovasidan** foydalanishning tartib, qoidalarini, undan foydalanuvchi shaxslarning hamda Sotuvchining huquq va majburiyatlarini, kafolat, fors-major holatlarni belgilaydi.

1.2 Kitob va Mobil ilovani sotishdan oldin **sotuvchi** iste'molchini mazkur shartnomada belgilangan foydalanish shartlarini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, iste'molchi ushbu taklif va shartlarga rozilik bildirgan taqdirda, Kitob va uning Mobil ilovasini sotib oladi. Mobil ilovani sotib olgan mijoz, Sotuvchining kafolatini talab qilishi uchun mazkur shartnomada aks etgan qoidalarga, huquq va majburiyatlarga rozilik bildirgan hisoblanadi.

1.3. Ushbu shartnomada quyidagilar belgilangan:

- Kitob va uning mobil ilovasini mazmuni;
- Kitob va uning mobil ilovasidan foydalanuvchi shaxslar doirasi;
- Kitob va uning mobil ilovasidan foydalanish tartibi va shartlari;
- kitob va uning mobil ilovasidan foydalanuvchining huquq va majburiyatlari;
- Sotuvchining huquq va majburiyatlari;
- Kafolat;
- Fors-major holatlar;
- Mahsulotni qaytarib berish va qaytarib olish;
- Nizolarni hal etish.

1.4 Ushbu shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

- **Sotuvchi** – til o'rganish bo'yicha kitob va uning mobil ilovasini ishlab chiqqan «BOOKNOMY» MChJ;

- **kitob** - Sotuvchining «BOOKNOMY Ingliz tili», «BOOKNOMY Английский язык», «BOOKNOMY Arab tili», «BOOKNOMY Turk tili», «BOOKNOMY rus tili» va «BOOKNOMY Koreys tili» nomli **bosma shakldagi** kitoblardan biri;

- **kitobning mobil ilovasi** - Sotuvchining «BOOKNOMY Ingliz tili», «BOOKNOMY АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК», «BOOKNOMY Arab tili», «BOOKNOMY Turk tili», «BOOKNOMY rus tili» va «BOOKNOMY Koreys tili» nomli bosma shakldagi kitoblardan birining **audio va elektron shakli** tushirilgan mobil ilovasi;

- **kitob va uning mobil ilovasi** - Sotuvchining «BOOKNOMY Ingliz tili», «BOOKNOMY АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК», «BOOKNOMY Arab tili», «BOOKNOMY Turk tili», «BOOKNOMY rus tili» va «BOOKNOMY Koreys tili» nomli bosma shakldagi kitoblardan biri va uning mobil ilovasi.;

- **tanlangan til** - Ingliz, Rus, Arab, Turk va Koreys tillaridan biri;

- **foydalanuvchi** – tanlangan tilni o‘rganish maqsadida kitob va uning mobil ilovasini sotib olgan hamda undan foydalanuvchi shaxs (**iste’molchi**);

- **mashg‘ulot** – tanlangan tilni o‘rganish bo‘yicha kitob va uning mobil ilovasiga joylashtirilgan tinglash va matnlarni kuzatib borish, shuningdek takroriy tinglashlarda ovoz chiqarib talaffus qilishdan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlar;

- **mashg‘ulotlarni bajarish** – kitob va uning mobil ilovasidagi audio matnli mashg‘ulotlarni jadval asosida tartibli ketma-ketlik bilan elektron yoki bosma shakldagi matnlarni kuzatgan holda tinglash, shuningdek, takroriy tinglashda matnlarni ovoz chiqarib takrorlab borishi;

- **jadval** - kitobning mobil ilovasidagi mashg‘ulotlarni bajarish jadvali;

- **matn** – kitob va uning mobil ilovasidagi matnlar, hikoyalar;

- **kafolat** – Foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasi mashg‘ulotlarini jadval hamda qo‘yilgan talab asosida to‘liq bajarganidan so‘ng, mashg‘ulotlardagi so‘z, so‘z birikmalari va gaplardan foydalanib tanlangan tilda so‘zlashish qobiliyatiga erishmagan taqdirda, Sotuvchi tomonidan foydalanuvchiga kitob va uning mobil ilovasi uchun to‘lagan to‘lov miqdori 100 foiz miqdorida qaytarib berilishi kafolati.

2. Kitob va uning mobil ilovasi.

2.1 Mijozlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida **Sotuvchi** tomonidan Ingliz, Rus, Arab, Turk va Koreys tillarida erkin so‘zlashishni o‘rganish bo‘yicha kitob va uning mobil ilovasi ishlab chiqilgan.

2.2. Mazkur kitob va uning mobil ilovasi Ingliz, Rus, Arab, Turk va Koreys tillaridan birini o‘rganish istagini bildirgan mijozlar uchun tanlangan tilni o‘rganish, ya’ni o‘qish, tinglab anglash va so‘zlashish qobiliyatini shakllantirishda yordamchi dastur hisoblanadi.

2.3 Foydalanuvchi o‘z hoxishiga ko‘ra, kitobdagi audio matnlarni tinglashda kitobning ham bosma ham elektron shakllaridan foydalanishi mumkin.

2.4 Kitobning mobil ilovasiga, bosma yoki elektron matnlarni kuzatgan holda audio matnni tinglashni nazarda tutuvchi 24 mashg‘ulot kiritilgan bo‘lib, foydalanuvchidan ularni 24 hafta mobaynida jadval asosida ketma-ketlik bilan tinglab borish talab etiladi.

3. Kitob va uning mobil ilovasidan foydalanuvchi shaxslar doirasi.

3.1 Kitob va uning mobil ilovasi ko‘rish, eshitish va so‘zlashish qobiliyatlarida nuqsoni bo‘lmagan, shuningdek, tanlangan tildagi alifbolarni biluvchi, harflarni talaffuz qilish va so‘zlarni erkin o‘qiy olish imkoniga ega bo‘lgan, 12 yoshga to‘lgan va undan yuqori yoshdagi shaxslar uchun mo‘ljallangan.

3.2 Kitob va uning mobil ilovasini sotib olgan shaxs, uning foydalanuvchisiga aylanadi.

3.3 Kitob va uning mobil ilovasidan foydalanish uchun foydalanuvchiga maxsus parol - ID raqam biriktiriladi.

3.4 Sotib olingan kitob va uning mobil ilovasi foydalanuvchining mobil qurilmasiga yuklanib, parol asosida foydalanish boshlanganidan so‘ng, kitobning mobil ilovasini boshqa qurilmaga ko‘chirib olish imkoni mavjud emas.

3.5 Kitob va uning mobil ilovasidan 3-shaxslar, ya‘ni foydalanuvchidan tashqari boshqa shaxslar foydalangani aniqlangan taqdirda Sotuvchi tomonidan berilgan kafolat o‘z kuchini yo‘qotadi, biroq bu kitob va uning mobil ilovasi foydalanishni davom ettirishga hech qanday **to‘siq bo‘lmaydi**, shuningdek, foydalanishda Sotuvchidan maslahatlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.

4. Kitob va uning mobil ilovasidan foydalanish tartibi va shartlari.

4.1 Foydalanuvchiga ortiqcha mashaqqat tug‘dirmaslik maqsadida kitobning mobil ilovasi off-layn rejimda (Internet tarmog‘isiz) ishlashga mo‘ljallangan.

4.2 Kitobning mobil ilovasida 24 ta mashg‘ulotlar bo‘lib, ularni jadval asosida ketma-ketlikda tinglash va matnlarni kuzatib borish lozim, shuningdek takroriy tinglashda audio matndagi so‘z va gaplarni talaffuz qilish lozim.

4.3 Jadvaldagi har bir mashg‘ulot bir haftaga mo‘ljallangan. Foydalanuvchi har bir mashg‘ulotni 6 kun davomida, kuniga kamida 3 marotabadan kitobning mobil ilovasi orqali mashg‘ulotlarni bajarib borishi lozim. Haftaning 7-kuni dam olib, keyingi haftadan jadval asosida yana yangi mashg‘ulotni bajarish davom ettiriladi.

4.4 Mashg‘ulotlarni sutkaning xohlagan vaqtida kamida 3 marotaba bajarib borish mumkin. Bu foydalanuvchining kundalik vaqt taqsimotiga bog‘liq.

4.5 Foydalanuvchi mashg‘ulotlarni kitobning mobil ilovasi orqali bir sutka davomida bajarmasa, unga off-layn rejimida xabarnoma keladi va mashg‘ulotlarni bajarishi eslatiladi. Foydalanuvchi 1 va 2-sutkada kitobning mobil ilovasi orqali mashg‘ulotlarni bajarmagan taqdirda, unga 2 sutka davomida xabarnomalar kelib turadi, 3-sutka (72 soat) o‘tganidan so‘ng esa Sotuvchi bergan kafolat o‘z kuchini yo‘qotganligi haqida xabarnoma yuboriladi.

4.6 Mazkur shartnomaning 9.4 bandiga asosan Sotuvchi tomonidan berilgan kafolat o‘z kuchini yo‘qotgan taqdirda ham, foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasidan foydalanish, shuningdek, ushbu jarayonda Sotuvchidan maslahatlar olish huquqidan mahrum bo‘lmaydi.

4.7 Sotuvchi o'zi tomonidan ishlab chiqilib, foydalanuvchilarga sotgan kitob va mobil ilovalar ma'lumotlar bazasini shakllantirib boradi. Ushbu ma'lumotlar bazasida foydalanuvchining anketa ma'lumotlari, ID raqami, kitob va uning mobil ilovasi sotib olingan sana hamda mobil ilovadan foydalanish jarayoni bilan bog'liq ma'lumotlar saqlanadi.

4.8 Sotuvchi o'zi tomonidan berilgan kafolat amal qilishini ta'minlash maqsadida, foydalanuvchining mashg'ulotlarni bajarish jarayonini kitobning mobil ilovasi orqali kuzatib boradi. Buning uchun, foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasini sotib olganidan boshlab har 30 kunda kamida bir marotaba kitobning mobil ilovasi yuklangan qurilma orqali Internet tarmog'iga ulanish majburiyatini oladi.

5. Foydalanuvchining huquqlari.

5.1 Kitob va uning mobil ilovasini sotib olishdan oldin Sotuvchidan undan foydalanish shartlarini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini batafsil tushuntirishni talab qilishi, shartnomada gi umumiy qoidalarga rozilik bildirmagan taqdirda Sotuvchi bilan individual shartlar asosida yozma shartnoma tuzilishini talab qilishi;

5.2 Foydalanuvchi mobil ilovadan foydalanish jarayonida Sotuvchining aloqa vositalari (shartnoma ning 13-bobida aks etgan) orqali haftanin yakshanba va bayram kunlaridan tashqari har kuni soat 09:00dan 18:00 ga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida ma'lumot va maslahatlar olishi;

5.3 Foydalanuvchi shartnomaning 11-bobida nazarda tutilgan o'zi bilan bog'liq fors-major holatlari haqida Sotuvchiga 72 soat davomida xabar berishi hamda mashg'ulotlarni bajara olmaslik sabablarini tushuntirishi;

5.4 Kitobning mobil ilovasi yuklab olingan qurilmasiga shikast yetgan, yo'qolgan yoki jinoyat natijasida talon-toroj qilingan taqdirda, uni boshqa qurilmaga yuklab olishda Sotuvchidan amaliy yordam so'rash va talab qilish;

5.5 Kitobning mobil ilovasi ishlashida nosozliklar yuzaga kelgan taqdirda Sotuvchidan ushbu nosozliklarni bartaraf etishni talab qilish;

5.6 Foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasi mashg'ulotlarini to'liq bajarganidan so'ng, mashg'ulotlardagi so'z, so'z birikmalari va gaplardan foydalanib tanlangan tilda so'zlashish qobiliyatiga erishmagan taqdirda, mashg'ulotlar tamomlanganidan so'ng 30 kun mobaynida, kitob va uning mobil ilovasi uchun to'lagan pul mablag'ini qaytarish haqida Sotuvchining aloqa vositalari (shartnoma ning 13-bobida aks etgan) orqali yoki ofisiga shaxsan kelib murojaat qilish;

5.7 Foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasi mashg'ulotlarini sutkaning xohlagan vaqtida bajarib borishi va haftada bir kun mashg'ulotlardan dam olishi;

5.8 Sotuvchining g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararning to'liq hajmda qoplanishini talab qilish;

5.9 buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilinishini soʻrab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etishi mumkin;

5.10 Sotuvchi tomonidan unga yetkazib berilgan mobil ilovada nosozliklar aniqlansa yoki tanlangan tildagi matnlar notoʻgʻri tarjima qilingani aniqlansa, Oʻzbekiston Respublikasining “Isteʼmolchilarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonuni va mazkur sohadagi boshqa qonun hujjatlariga asosan, Sotuvchidan mahsulotni qaytarib olishni va pullarini qaytarilishini talab qilishi;

5.11 Foydalanuvchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.

6. Foydalanuvchining majburiyatlari.

6.1 Foydalanuvchi har bir mashgʻulotni 6 kun davomida, kuniga kamida 3 marotabadan kitobning mobil ilovasi orqali bajarib borishi lozim. Haftaning 7-kuni dam olib, keyingi haftadan jadval asosida yana yangi mashgʻulotni bajarish davom ettiriladi.

6.2 Foydalanuvchi mashgʻulotlarni kitobning mobil ilovasi orqali oʻziga bogʻliq boʻlmagan holatlarga koʻra bajara olmaslik, yaʼni fors-major holatlari haqida Sotuvchini 72 soat ichida xabardor qilishi lozim. Ushbu 72 soat foydalanuvchi kitobning mobil ilovasidan ohirgi marotaba foydalangan vaqtdan eʼtiboran hisoblanadi;

6.3 Kitobning mobil ilovasidagi audio matnlarni jadval asosida tartibli ketma-ketlik bilan elektron yoki bosma shakldagi matnlarni kuzatgan holda tinglash. Shuningdek, takroriy tinglashda matnlarni ovoz chiqarib takrorlab borishi, matndagi savollarga ovoz chiqarib javob berishni mashq qilish Foydalanuvchiga tavsiya etiladi;

6.4 Kitobning mobil ilovasi oʻrnatilgan qurilma orqali 30 kunda kamida bir marotaba Internet tarmogʻiga ulanish.

7. Sotuvchining huquqlari.

7.1 Sotuvchi isteʼmolchilarga sotilgan kitob va mobil ilovalar maʼlumotlar bazasini (shartnomaning 4.7 bandida aks etgan maʼlumotlarni) shakllantirib borish;

7.2 Foydalanuvchining mobil ilovada jadval asosida mashgʻulotlarni bajarib borishini kitobning mobil ilovasi orqali kuzatib borish;

7.3 Foydalanuvchi mashgʻulotlarni oʻtkazib yuborgan taqdirda kitobning mobil ilovasi orqali unga xabarnomalar yuborish;

7.4 Shartnomaning 9.4 bandida nazarda tutilgan holatlar sodir boʻlganida, kafolatni bir tomonlama bekor qilish va bu haqda foydalanuvchiga xabarnoma yuborish;

7.5 Sotuvchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.

8. Sotuvchining majburiyatlari.

8.1 Mobil ilovani sotishdan oldin iste'molchiga mobil ilovadan foydalanish shartlarini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini batafsil tushuntirib berishi;

8.3 Sotuvchi foydalanuvchining mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq savollariga zudlik bilan yoki uzog'i bilan bir ish kuni davomida javob berishi;

8.3 Foydalanuvchining qurilmasi yo'qolgan yoki unga shikast yetgani haqida 72 soat ichida xabar bergan foydalanuvchilarga kitobning mobil ilovasini boshqa qurilmaga yuklanishida amaliy va texnik yordam ko'rsatishi;

8.4 Foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasi mashg'ulotlarini to'liq bajarganidan so'ng, mashg'ulotlardagi so'z, so'z birikmalari va gaplardan foydalanib tanlangan tilda so'zlashish qobiliyatiga erishmagan taqdirda, kitob va uning mobil ilovasi uchun to'langan pullarni foydalanuvchiga to'liq miqdorda qaytaradi;

8.5 Foydalanuvchiga sotilgan kitobning mobil ilovasida nosozliklar aniqlansa yoki tanlangan tildagi matnlar noto'g'ri tarjima qilingani aniqlansa, mahsulotni qaytarib olish va foydalanuvchiga pullarini to'liq qaytaradi.

9. Kafolat.

9.1 Shartnomaning 3.1 bandida nazarda tutilgan talablarga javob bergan Foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasi mashg'ulotlarini to'liq bajarganidan so'ng, mashg'ulotlardagi so'z, so'z birikmalari va gaplardan foydalanib tanlangan tilda so'zlashish qobiliyatiga erishmagan taqdirda, Sotuvchi kitob va uning mobil ilovasi uchun to'langan pullarni Foydalanuvchiga 100 foiz miqdorida qaytarib berishga kafolat beradi.

9.2 Kafolat kitob va uning mobil ilovasi mashg'ulotlari tamomlanganidan so'ng 30 kun mobaynida amal qiladi. Ushbu muddat ichida murojaat qilgan foydalanuvchining murojaati ko'pi bilan 15 kun ichida Sotuvchi tomonidan ko'rib chiqiladi.

9.3 Foydalanuvchining e'tirozi shartnomaning 9.1 bandida belgilanganidek tasdiqlangan taqdirda, u tomonidan kitob va uning mobil ilovasi uchun to'langan to'lov 5 kun ichida 100 foiz miqdorida foydalanuvchiga qaytarib beriladi.

9.4 Kafolat quyidagi hollarda Sotuvchi tomonidan bir tomonlama bekor qilinadi:

- foydalanuvchi 72 soat davomida kitobning mobil ilovasidagi audio mashg'ulotlarni 3 marotabadan tinglamasa;

- foydalanuvchi yoki uning tanishlari uni nomidan fors-major holatlari haqida 72 soat ichida Sotuvchiga xabar qilmasa (bunda 72 soat foydalanuvchi kitobning mobil ilovasidan ohirgi marotaba foydalangan vaqtdan e'tiboran hisoblanadi);

- foydalanuvchi sababsiz va Sotuvchini xabardor qilmagan holda kitobning mobil ilovasidan mashg'ulotlarni sababsiz 2 marotaba 48 soat davomida o'tkazib

yuborsa (ushbu 48 soat foydalanuvchi kitobning mobil ilovasidan ohirgi marotaba foydalangan vaqtdan e'tiboran hisoblanadi);

- foydalanuvchi 30 kunda kamida bir marotaba kitobning mobil ilovasi o'rnatilgan qurilma orqali Internet tarmog'iga ulanmasa;

- kitobning mobil ilovasidan foydalanuvchining o'rniga 3-shaxslar foydalanganligi aniqlansa;

- fors-major holatlaridan so'ng, kitob va uning mobil ilovasi orqali 10 kun davomida mashg'ulotlarni tinglash qayta tiklanmasa (bunday hollarda foydalanuvchiga kitob va uning mobil ilovasi orqali mashg'ulotlarni boshidan boshlash tavsiya etiladi va shundagina kafolat amal qilishi qayta tiklanadi);

10. Mahsulotni qaytarib berish va qaytarib olish.

10.1 O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 221-i-son qonuni 18-moddasiga asosan, iste'molchi (foydalanuvchi) maqbul **sifatli** nooziq-ovqat tovarini (mobil ilovani) xarid qilgan kundan e'tiboran **o'n kun ichida** ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga **almashtirib olishga**, bunday tovar **sotuvda bo'lmasa, pulini qaytarib olishga** haqli.

10.2 Foydalanuvchiga sotilgan kitob yoki uning mobil ilovasida **nosozliklar aniqlansa** yoki tanlangan tildagi matnlar **noto'g'ri tarjima qilingani aniqlansa**, Sotuvchi mahsulotni **qaytarib oladi** va foydalanuvchiga **pullarini to'liq qaytaradi**.

11. Fors-major holatlar.

11.1 Quyidagilar fors-major holatlari deb topiladi:

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishiga to'sqinlik qiladigan tabiat hodisalari, urush, yengib bo'lmaydigan kuch va tomonlarga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar;

- foydalanuvchining kitob mobil ilovasi yuklangan qurilmasi shikastlanishi, yo'qolishi yoki jinoyat natijasida talon-toroj qilinishi;

- foydalanuvchining sog'lig'iga zarar yetishi natijasida, kitobning mobil ilovasidagi mashg'ulotlarni eshita olmaydigan holatga tushib qolishi (bu haqda tibbiy ma'lumotnoma nusxasi Sotuvchiga taqdim qilinishi lozim);

- foydalanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan qamoqqa olingan yoki ozodlikdan mahrum etilishi.

11.2 Fors – major holatlari tufayli foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasi orqali 10 kun davomida mashg'ulotlarni bajarishni qayta tiklay olmasa, bunda foydalanuvchiga kitob va uning mobil ilovasi orqali mashg'ulotlarni tinglashni boshidan boshlash tavsiya etiladi va shundagina kafolat amal qilishi qayta tiklanadi.

12. Nizolarni hal etish

12.1. Kitob va uning mobil ilovasidan foydalanish jarayonida Foydalanuvchi va Sotuvchi o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo, tortishuv va kelishmovchiliklar xayrixohlik hamda o'zaro anglashuv asosida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

12.2 Tomonlar muzokara yo'li bilan o'zaro kelishuvga erishmagan taqdirda, nizo sud tomonidan ko'rib chiqilishi lozim.

13. Sotuvchining yuridik manzili va mobil ilovadan foydalanish tartiblarini yetkazish tartibi.

13.1. Kitob va uning mobil ilovasidan foydalanish shartlari va tartibi to'g'risida ma'lumot Foydalanuvchiga mahsulot sotishdan oldin hamda sotilganidan so'ng kitobning mobil ilovasi orqali yetkaziladi.

13.2. Foydalanuvchi kitob va uning mobil ilovasi bo'yicha qo'shimcha savol maslahatlar yuzasidan batafsil ma'lumotni **1258** yoki **71-203-00-71** telefon raqamlari orqali yoki **www.booknomy.uz** veb-sayti orqali olishi mumkin.

13.3. Sotuvchining yuridik manzili: Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Alisher Navoiy ko'chasi, 26A-uy.

Iste'molchi	"BOOKNOMY" MCHJ
<hr/> <p>Manzili:</p> <hr/>	<hr/> <p>Manzili: Shayhontoxur tumani, Alisher Navoiy ko'chasi, 26A-uy.</p> <hr/>
<hr/>	<hr/> <p>XATB "Orient Finance" Chilonzor filiali Bank kodi: 01096 STIR: 305 838 115 Telefon: +998901210030</p> <hr/>
<hr/>	<hr/> <p>"BOOKNOMY" MCHJ direktori O.Ikromov</p> <hr/>
<hr/> <p>(Imzo)</p>	<hr/> <p>M.U. (Imzo)</p>